

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG‘ISHTIRMA TILSHUNOSLIK
VA TARJIMASHUNOSLIK

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

COMPARATIVE LITERARY STUDIES,
CONTRASTIVE LINGUISTICS AND
TRANSLATION STUDIES

2022 Vol. 3 (1)

www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Uzoq Jo'raqulov
Nozliya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Mas'ul kotib: Mahmadiyor Asadov

Tahrir hay'ati

Bahodir Xoliqov, Komiljon Hamroyev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidaxon Bumatova, Ulug'bek Yo'ldoshev, Nurmurod Chiniqulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychiyeva, Ra'noxon Xudjayeva, Zulfiya To'xtaxodjayeva, Ma'suma Obidjonova.

Jurnal haqida ma'lumot

"Qiyosiy adabiyotshunoslik chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik" seriyasi – qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarini qamrab olgan O'zbekiston: til va madaniyat akademik jurnalining ilovasi hisoblanadi.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikka oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda ilmiy maqolalar, kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.
O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlctscls@navoiy-uni.uz
Website: www.uzlctscls.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy editor-in chief: Uzok Djurakulov
Nozlya Normurodova
Ziyoda Teshaboyeva

Executive secretary: Mahmadiyor Asadov

Editorial Board

Bahodir Kholikov, Komiljon Hamroev, Odiljon Safarov, Nargiza Rashidova, Murtazo Saydumarov, Aidakhon Bumatova, Ulugbek Yuldoshev, Nurmurod Chinikulov, Nigora Sulaymonova, Oydin Tuychieva, Ra'nokhon Xudjaeva, Zulfiya Tukhtaxadjaeva, ma'suma Obidjanova.

About the Journal

Uzbekistan: Language and Culture. Comparative Literary Studies, Contrastive linguistics and Translation Studies series is an academic journal that publishes works in the field of comparative literary, contrastive linguistics and translation studies.

The journal is published twice a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome.

In addition to research articles, the journal publishes thesis and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.transcompliterary.tsuull.uz

MUNDARIJA

JAHON ADABIYOTI VA TIPOLOGIK TALQIN

Komiljon Hamroyev	
“Saddi Iskandariy” va “Hamlet” asarlarida “bilib qolish” tipologiyasi.....	6
Mahmadiyor Asadov	
“Kimsasiz odam” botin olamining badiiy-psixologik talqini	14
Nilufar Jumayeva	
Uilyam Folkner asarlarida simvolizm belgilari	21
Yulduz Ziyayeva	
“Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi takomilida jahon romanchiligining ta’siri.....	29
Azamat Xayrullayev	
Sharq hikoyatlarida “tarbiya motivi”	37
Dilnavoz Najimova	
Jahon adabiyotida antalogiya tuzish tamoyillari	41

SHARQ VA G’ARB LIRIKASI MUAMMOLARI

Sarvinov Sotiboldiyeva	
Foniyning muxtare’ g’azallari.....	47
Oydin Tuychiyeva	
Moga Rahmoniy tazkirasida ijtimoiy-tarixiy muhitning poetik tasviri	61

TARJIMA VA TARJIMASHUNOSLIK

Kosimboy Ma’murov, Nargiza Tilakova	
Navoiy ijodiyoti: g’azal tarjimasining tartibi-qoidalarini	72
Nargiza Rashidova	
O’zbek va turk tillarida diniy mansab va unvon nomlari semantikasi.....	86
Aidaxon Bumatova	
Poetik tarjima transformatsiyasi.....	92
Odiljon Safarov	
Qiyosiy tilshunoslik muammolari	100
Ra’noxon Xudjayeva	
Badiiy asarlarda omonimlar berilishining tarjima muammolari.....	113

QUTLOVLAR

Uzoq Jo’raqulov	
Global adabiyot talqinchisi	121

XOTIRALAR

Nargiza Rashidova	
Ilmgaga baxshida umr	125

CONTENT

TYPOLOGICAL ANALYSES AND THE WORLD LITERATURE

Komiljon Hamroev	
Typology of "realizing" in "Saddi Iskandariy" and "Hamlet"	6
Mahmadiyor Asadov	
The artistic and psychological interpretation of the inner world of "desolate man"	14
Nilufar Jumaeva	
Signs of Symbolism in William Faulkner's works	21
Yulduz Ziyaeva	
The influence of world novels on the development of the image of "lady-love suitor, rival"	29
Azamat Khayrullaev	
"Motif of education" in East stories	37
Dilnavoz Najimova	
Principles of Compiling an anthology in World Literature	41

THE ISSUES OF POETRY OF WESTERN AND EASTERN COUNTRIES

Sarvinoz Sotiboldieva	
Foni's mukhtarah gazelles	47
Oydin Tuychieva	
Poetic description of the socio-historical environment in Moga Rahmani's Tazkiras... 61	

TRANSLATION AND TRANSLATOLOGY

Kosimboy Ma'murov, Nargiza Tilakova	
Navoi's creativity: procedure of ghazal Translation	72
Nargiza Rashidova	
The semantics of religions ranks and titles in Uzbek and Turkish languages.....	86
Aidakhon Bumatova	
Transformations in the poetic Translation	92
Odiljon Safarov	
The problems of contrastive linguistics	100
Ra'nokhon Khudjaeva	
Translation problems of giving homonyms in literary works	113

GRATITUDES

Uzoq Djuraqulov	
Interpreter of global literature	121

MEMORIES

Nargiza Rashidova	
Life, devoted to the science	125

Abstrakt

Maqolada roman janrining obrazlar tizimi, obraz yaratishda jahon romanchiligining ta’siri masalasi mustaqillik davri romanlari kontekstida tadqiq etilgan. Xususan, “Tushda kechgan umrlar”, “Bozor”, “Jaziramadagi odamlar” romanlarida tarixiy-an’anaviy “oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazini yaratishda jahon romanchiligi ta’siri o’rganilgan. Shuningdek, ushbu romanlar syujet liniyasida “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlarining jahon romanchiligi ta’sirida “ilk syujet”dan uzoqlashgani, tartibi o’zgargani kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so’zlar: *tarixiylik, an’anaviylik, jahon romanchiligi, adabiy ta’sir, “oshiq-ma’shuqa-raqib”, “uchrashuv”, “ayriliq”, “visol”.*

Kirish

Adabiyot tarixiylik prinsipi asosida shakllanadi. Bugungi zamonaviy o’zbek romanlarining taraqqiy etishida adabiyot tarixi muhim sanaladi. Adabiyotning ma’lum bir davrini bo’lib olib, ayro tasavvur qilib bo’lmaydi. Ya’ni tarixiylik prinsipi asosida janrlar, obrazlar taraqqiy etib keladi. Zamonaviy adabiyotning asoslari mumtoz adabiyot tarixiga borib taqaladi. Buni janrlar misolida, yoki obrazlar sistemasiga olib qaraydigan bo’lsak ham turli asoslarini topishimiz mumkin. Masalan, bugungi o’zbek romanining shakllanishi uchun sovet, jadid romanchililigi, balki mumtoz epik asarlari ham muhim sanaladi. Bugungi zamonaviy o’zbek romanchiligini vujudga kelishida A.Qodiriy, Cho’lpon, Oybek, A.Qahhor kabi ijodkorlarning romanchilik an’analari zamonaviy romanchilikda ham davom etib kelayotgannini ko’rishimiz mumkin. Bu jarayon janrlar, obrazlar tizimida ko’zga tashlanadi. Umuman, har bitta davrga xos, jamiyatga xos lirik, epik, dramatik asarlar bo’lsin, o’zining ko’p o’qiladigan katta va yetakchi janrlari bo’ladi. Katta janrlar adabiyotning kuchini, badiiy quvvatini belgilab beradi. Epos, doston, “Xamsa”, romanlar ana shunday janrlardan hisoblanadi. Ko’p murojaat qilinadigan davrlar, ko’p murojaat qilinadigan asarlar bo’ladi. Yetakchi janrlar ko’p o’qilishiga sabab ular ijtimoiy jarayonni o’zida aks ettiradi. Bugungi kundagi roman qadimgi eposga, mumtoz adabiyotdagi “Xamsa”ga teng turadi. Chunki bular epik tafakkurning o’z davridagi eng katta janrlari hisoblanadi. Bugungi zamonaviy o’zbek romani, nafaqat sovet, jadid romanchiligining mahsuli, balki eposning, “Xamsa” janrining vorisi sifatida badiiy adabiyotda

¹ Ziyayeva Yulduz Temirxonovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti o’qituvchisi.

E-pochta: ziyayevayulduz43@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5398-1728

Iqtibos uchun: Ziyayeva Y. 2022. “Oshiq-ma’shuqa-raqib” obrazi takomilida jahon romanchiligining ta’siri”.

O’zbekiston: til va madaniyat 3 (1): 29-36.

harakat qiladi. Ko'p adabiyotshunoslar tomonidan epos yoki roman tahlil qilinganda epos va roman janrlarini qiyoslab tahlil qilish an'anasi bor. Bu an'analar adabiy jarayonda bekorga tasnif qilinmaydi, chunki ularni o'ziga xos jihatlari bor, shu bilan birga ikki davrni ham epik tafakkurdagi katta janri bo'lganligi sababli umumiy jihatlari ham ko'zga tashlanadi. Mana shunday katta epik asarlarni janr xususiyatlaridan tashqari nazariy komponentlar ham birlashtirib turadi. Masalan, mavzu, syujet, detal, kompozitsion qurilish, obrazlar tizimi kabilar. Roman janrining eng muhim nazariy komponentlaridan biri syujet hisoblansa kerak. Aynan syujet epos va roman janrlarini bir qadar yaqinlashtiradi. Bundan tashqari obrazlar tizimi ham bu ikki janrni birlashtiradi. Bitta "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlar tizimiga e'tibor qiladigan bo'lsak, bu mumtoz dostonchilik, "Xamsa" dostonlarida, sovet, jadid romanchiligida ham kelishini ko'ramiz. Mana shu obrazlar tizimi epik tafakkurdagi katta janrlarni birlashtirib turuvchi komponent ekanligini ta'kidlash kerak. Demak, roman qadimgi eposning, "Xamsa" dostonlarining vorisi, davomchisi sifatida adabiy jarayonda harakat qiladi.

Adabiyotlar tahlili

Tarixiy-an'anaviy "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlari romanlarda ham an'anaviy, ham jahon romanchiligi ta'sirida yaratiladi. Mustaqillik davri o'zbek romanlarida "oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazi takomilida jahon romanchiligining ta'sirini ko'proq ko'ramiz. Roman janri o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy nomi bilan bog'liq bo'lsa-da, roman yangi janr sifatida o'zbek adabiyotida ilk ijod etilsa-da, lekin jahon romanchilik an'analarini o'zida mujassam etmaydi. Uchlik takomiliga jahon romanchiligining ta'siri Cho'lponning "Kecha va Kunduz", Abdulla Qahhorning "Sarob" romanlari orqali kirib keldi. Cho'lponning romanchilikka kiritgan yangiligi ijtimoiy-psixologik tasvir usulidan foydalanish keyingi romanchilik tadrijida ham kuzatiladi. Adabiyotshunos D.Quronov asar haqida shunday fikr bildiradi: "O'zbek adabiyotida ilk romanlar fonida "Kecha" romani hayotni badiiy tadqiq etish yo'lining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o'ziga xoslik Cho'lponning inqilob arafasidagi Turkiston voqeligini uning qahramonlari ruhiyatida qoldirgan izlari orqali ochishga intilishida ko'zga tashlanadi. Ya'ni, yozuvchining ko'zlagan g'oyaviy-badiiy niyati ijtimoiy va psixologik tahlillarning uyg'unlashuvi hisobiga amalga oshishi lozim edi. Boshqacha qilib aytganda, "Kecha o'zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan" [Куронов 2004,154].

"Kecha va kunduz" romanida Miryoqub obrazini yaratishda ijtimoiy-psixologik tasvirga muhim o'rin berilgan. Bu jihatdan "Sarob" romanida ham Saidiy obrazi orqali ijtimoiylikka munosabat ko'rinadi. Ijtimoiy-psixologik tasvir "Tushda kechgan umrlar", "Bozor", "Jaziramadagi odamlar"da ham kuzatiladi. Dastlabki ikki romanda oshiq obrazi, uchinchi romanda esa ma'shuqa obrazining ijtimoiy-psixologik yo'nalishda xususiyatlari ochiladi.

“Kecha va kunduz” romanidagi uchlik tizimining ayrim xususiyatlari mustaqillik davri romanlariga ko’chdi. Xususan, “oshiq-ma’shuqa-raqib” ramziylashgan. “Kecha va kunduz” romanida Zebi obrazida erki bo’g’ilgan ayol va erki bo’g’ilgan vatanni ko’ramiz. Millatning mustamlaka tizimiga muteligi Zebi obrazida yaqqol ko’ringan. Zebi xususiylikdan umumiylikka qarab tadrijiy o’sib boradi. Lekin ma’shuqa sifatida Zebi obrazi ramziylashgan bo’lsa-da, uning taqdiri ochiqdanmaydi. Qaram millatning ichidan chiqqan Miryoqubning esa dinamik o’sishi muhim xususiyatidir. Miryoqubda ham xususiylikdan o’z menini yo’qotib “millat” tushunchasi tomon siljishi bor. Cho’lpon millatni uyg’otishni aynan Miryoqub orqali amalga oshiradi. “Bozor” romanida Fozilbek ham ma’shuqa visoli uchun izlanadi, ramziy millatni anglatishi jarayonida xususiylikdan umumiylik sari rivojlanadi.

“Kecha va kunduz” romanidagi uchlikning yana bir xususiyati ular aynan buzilgan jamiyat ichidan chiqadi. Jamiyatni ayni holatda tasvirlash uchun ramziylashgan obrazlarni ham ularga monand berish voqelikni to’laqonliroq tushunishni asoslaydi. Zebi, O’lmasjon, Akbarali, Miryoqub, Maryamdagi yaxshi va yomon jihatlar ularni ideallikdan, an’anaviy uchlikdan farqlab turadi. Mustaqillik davri romanlarida ham Fozilbek, Qadriya, O’roq, Lolaxon, Rustambek, Shahnoza kabi oshiq va ma’shuqalar ham tartibsiz jamiyat vakillari edi. Shuning uchun ularda kamchilik, qusur kuzatiladi. Uchlikning buzilgan jamiyatning ichidan chiqib kelishi, mukammal emasligi, uchlik talablariga javob bermasligi ham jahon romanchiligi an’alarining ta’siri ekanligini qayd etishimiz lozim.

Tarixiy-an’anaviy takomilda “ilk syujet”dagi “ilk uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari “O’tkan kunlar”, “Qutlug’ qon” romanlarida aynan takrorlanadi. Cho’lpon romanlarida esa ayni motivlarda ham buzilish ko’zga tashlanadi. “Kecha va kunduz” romanini tahlil qiladigan bo’lsak, unda Zebi va O’lmasjonning ilk uchrashuvi, ayrilig’i asarga kiritilgan. Lekin “Ayriliq” motivi ham to’la ishlanmagani bilan xarakterlanadi. Chunki oshiq obrazi – O’lmasjon asar voqealaridan tushib qoladi, o’z vazifasini to’laqonli bajara olmaydi. Ayriliq oshiq uchun haqiqiy sinov. Sinovdan o’tmagan, hijron azobini chekmagan, raqib kurasha olmagan oshiq, oshiq emas. “Ayriliq” bosqichini o’tamagan juftlik visolga yetishmagani o’rinli bo’ladi shu jihatdan. Romandan “Visol” motivining tushib qolishi ham aynan oshiqning xususiyatlari bilan asoslanadi. Mavjud siyosiy tuzumning, mustamlakachilikning to’siq bo’lishi Akbarali orqali ramziylashgan. Biz biron bir o’rinda O’lmasjon bilan Akbaralini konfliktini ko’rmadik. Zero, asar markazida oshiq va ma’shuqaning kuchli raqobati yuzaga chiqishi kerak. Asar markaziga ma’shuqaning olib chiqilishi, mavjud tuzum bilan yuzma-yuz keltirilishi “Jaziramadagi odamlar” romanidagi Lolaxonda ham kuzatiladi. “Kecha va kunduz” romanidagi Miryoqub atrofidagi uchlikda ham “ilk uchrashuv”, “ayriliq”, “visol” motivlari o’zgargan. Romanga faqat Miryoqubning Maryam bilan “ilk uchrashuvi” kiritilgan. “Ayriliq”, “visol” motivlari asoslanmagan. “Sarob” romanida ilk uchrashuv universitet ostonasida sodir bo’ladi. Romanda oshiq va ma’shuqa

munosabatlarida doimiy uchrashib yurishi jahon adabiyotidan kirib kelgan. Chunki Sharq adabiyotida oshiq va ma'shuqa nikohsiz uchrashishi diniy-ma'rifiy qarashlarga to'g'ri kelmaydi. Ayriliq motivi ham romanda oshiq va ma'shuqaning shuhratparastlikka uchganligi oqibatida kelib chiqqan. Jahon romanchiligi an'analariga ko'ra oshiq yoki ma'shuqaning boshqa inson bilan oila qurishi, o'rtaga nikoh masalasi kiritilishi "Kecha va kunduz", "Sarob" romanida ham kuzatiladi. "Visol" motivi Saidiyning o'limi tufayli yakuniga yetmaydi. Chunki Saidiy psixologik bosim, ruhiy buzilish tufayli an'anaviy oshiqlardan mutlaqo farqli ravishda o'z-o'zini o'ldiradi. Mustaqillik davri romanlariga ayni takomil ko'chgan.

Demak, mustaqillik davri romanlarida an'anaviy motivning o'zgarishi "Kecha va kunduz", "Sarob" romanlaridan kelib chiqib belgilanadi. Dastavval e'tiborimizni "Tushda kechgan umrlar" romaniga qaratsak. Rustambek va Shahnoza universitet bo'sag'asida uchrashdi. Bu xuddi Saidiy va Munisxonlar uchrashuviga mengzaydi. "Ayriliq" motivi Afg'onistondagi urushning og'riqli psixologik bosimi zamirida sodir bo'ladi. Aytib o'tganimizdek, "visol" motivi romandan tushib qolgan. Chunki ruhiy buzilish, psixologik azoblanish Rustambekning ayanchli o'lim topishiga olib keldi. O'lim qahramonlik, shahidlik emas, oshiqning fojiasi, qaltis xatosi. Bu jihatdan visol haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Oshiq obrazidagi eng katta o'zgarishlardan biri ruhiyat buzilishi oqibatida fojiaiy o'lim topishi sanaladi. An'anaviy oshiq obrazida o'lim xalq harakati, qahramonlik bilan bog'liq ravishda "shahidlik" darajasiga chiqadi va oshiqning ma'shuqa bilan visoliga ishora qilinadi (Otabek, Yo'lchi obrazlari). "Sarob" asarida esa Saidiy o'zini o'ldirishi romanchilikda katta yangilik edi. To'g'ri, Hamzaning "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari" dramatik asarida Mahmudxon ham o'zini o'ldiradi. Faqat bunga siyosiy tuzum ta'sirida inson ongining buzilishi, ruhan cho'kish emas, eskicha fikrlaydigan ota-onaning farzandini tushunmasligi sabab qilib olingan. Umuman, oshiqning o'zini nobud qilishi sharq adabiy an'anasiga yot holat. "Sarob" romanidan ayni o'zgarish "Tushda kechgan umrlar" romanidagi Rustambek obraziga ko'chgan. Siyosiy tuzum katta ma'naviy yo'qotishga olib keladi, ma'nan o'lgan odam esa o'z-o'zini jismonan halok qilishdan toymaydi. Oshiqni o'lingacha olib borgan jarayon g'oyat puxta psixologik tasvirda yoritib berilgan.

"Jaziramadagi odamlar" romanida motiv o'z xususiyatini tamoman yo'qotgan. Chunki uchlik ijtimoiy funksiyasining anormallashuvi amalda motivni normadan chiqish orqali ifodalashga olib kelgan. "Ilk uchrashuv" O'roq va Lolaxonni nafsga yengilishiga olib keldi. Motivning anormallashuvi "ayriliq" motivida ham davom etadi. O'roq urushga borishdan bosh tortishi, qo'rqqoligi va tezda "temir tobut"da cho'lga qaytishi oshiqning umuman ayriliqda toblanmaganini ko'rsatadi. O'roq asar markazidan tushib qolishi nuqtayi nazaridan O'lmasjonga yaqin obraz. O'roqni Vatan urushida emas, afg'on urushida halok bo'lishi shahid ketmaganligini asoslaydi. Otabek va Yo'lchining shahid ketishi abadiy visolni jannatda bo'lishiga ishora qilgan.

O'roq urushda o'ldirilsa ham, Lolaxon qotillik qurboni bo'lsa ham, ularning abadiy visolga yeta olmasligi oshiq va ma'shuqaning xususiyatlari orqali asoslanadi.

"Bozor" romanida "ilk uchrashuv", "ayriliq" motivlari tarixiy-an'anaviylik talablariga mos tarzda beriladi. "Visol" motivining mavhum qoldirilishi, ochiqlanmasligi jahon romanchiligi an'alaridan kelib chiqqan. "Bozor" romani "visol" motivi bilan yechim topishi kerak edi. Oshiq – millat, ma'shuqa – ilm, ma'rifat ekanligini hisobga olsak, Fozilbek va Qadriya asar so'nggida qiroatxonada qolishga qaror qiladi. Bu qaror visoldan darak bersada, lekin bozordagi odamlar o'zgarmadi, degan xulosa ham bor. Bu butun umr bozorni o'zgartirishni xohlagan Qosimbek bozorboshining niyatiga yetolmay olamdan o'tgani bilan xarakterlanadi. Asar so'nggida oshiq va ma'shuqaning suhbatlari Qosim bozorboshining o'lim xabari bilan yakunlanadi.

– Nima tomayapti?! – Qadriya barmog'ini ko'ziga yaqinlashtirib qaradi. – Qon-mi?!

Fozilbek qizning oppoq, momiq barmog'ining uchidagi qizg'ish namlikka qaradi. Tushunolmay, osmonu falakka alangladi.

– Nima bo'ldi?.. Qayerdan tom-di?!

Bu savolga na qiz, na yigit javob topdi. Shu payt Fozilbekning yonida Hoshim qo'riqboshining mulozimlaridan biri paydo bo'ldi. U Fozilbekning yelkasiga kaftini tashlab, ohista va taskin beruvchi ohangda gapirdi:

– Bandalik, uka, otangiz omonatni topshirdilar..." [Дўстмуҳаммад 2000, 191].

Jahon romanchiligidagi ramziylik "visol" motivining tugallanmasligi bilan ham izohlanadi. Millatning taqdiri haqida aniq izoh bermaslik, ramziylik orqali ishora qilish "Bozor" romanida kuzatiladi. Millat, ya'ni oshiqning ilm (ma'shuqa)ga yetgan-yetmagani yechim topmadi.

Mustaqillik davri romanlarida uchlik tizimida eng ko'zga tashlanadigan xususiyatlardan yana biri – raqib obrazining konkret shaxs orqali berilmasligi, oshiq va ma'shuqa visoliga to'siq jamiyatning buzuqligi sifatida belgilanishi bo'ldi. Tarixiy-an'anaviylik nuqtay nazaridan raqib shaytoniy, xaosga berilgan, hasadgo'y, fitnakor, hiylakor (Homid, Mirzakarimboy) obraz sifatida gavdalanadi. Raqibning aniqligi unga xos xususiyatlarni aniq ko'rsatish imkonini beradi. Jahon romanchiligi an'alarida ta'sirida raqibning xususiylikdan umumiylikka siljigani bevosita "Kecha va kunduz", "Sarob" romanlaridagi raqib obrazi bilan bog'liq. Raqibning muayyan shaxsdan siyosiy tuzumga aylanishi, umumiydashishi uning harakat doirasi kengayishiga, belgilari kuchayishiga va oshiq-ma'shuqa o'rtasida mustahkamroq to'siqqa aylanishiga olib keladi. Ob'ektlarimiz bo'yicha tahlil qilsak, raqibga qarshi, ya'ni buzilgan jamiyatga qarshi kurashish Fozilbek va Rustamda kuzatiladi. O'roq esa kurashmasdan yengiladi. Endi ramziylashgan raqibning xususiyatlari asar markazida ko'proq harakatlanadi. "Tushda kechgan umrlar" romanida kommunistik tuzum haqida Rustamning otasiga yozgan xatida xulosa qiladi.

Raqib obrazi asar markaziga chiqib qolishi, xususiyatlari kuchayishi, albatta, asar syujeti, turli obrazlar orqali beriladi. Shu jihatdan raqibdek taassurot qoldirgan obrazlar ortida ham muallifning maqsadi o'laroq jamiyat turadi. Roman voqealari "o'zbek ishi", "paxta ishi" bahonasida ko'plab o'zbeklarning qatag'onga uchrayotgan, bir tarafda afg'on urushi kechayotgan davrni qamrab olgan. Rustambekning raqibi Komissar orqali ramziylashtirilgan. "Kecha va kunduz" romani bilan taqqoslasak, unda mustabid tuzumning ko'lankasi Akbarali, Noyib to'ra orqali gavdalanadi. Akbarali Zebi uchun raqib darajasida bo'lsa, Miryoqub asar davomida Akbaraliga xos xususiyatlarni o'zidan uzoqlashtirishga, quvishga tirishadi. Mavjud ijtimoiylikdan kelib chiqib Akbarali va Miryoqub bir-biriga zid qo'yilgan. Raqibning doirasi kengayishi, raqibni muayyan shaxsga bog'lab qo'ymaydi va kengroq imkoniyat yaratadi. Chunki uchlikda ijtimoiy funktsiya bajarish asarni harakatlantiruvchi kuch. "Tushda kechgan umrlar"da raqib obrazini xususiyatlari urush, qatag'on siyosati, adolatsiz jamiyat, zo'ravonlikda ko'rinadi. Rustambek muayyan shaxsga emas, mana shunday illatlarga qarshi kurash oldida ojiz qoladi. "Bozor" romanida raqib bozordagi tartibsizliklar orqali yig'iladi. Tartibsizlikka urg'u berilishi raqibning eng ko'ringan xususiyatlaridan biri. "Jaziramadagi odamlar" romanida esa sho'ro hukumatining sodda odamlarni aldab cho'lni o'zlashtirishga ishonitirgani, "soxtalik" odamlar ruhiyatida salbiy o'zgarish yasaydi. Asarda raqibning belgisi sifatida deyarli barcha obrazlarning tafakkurida buzilish, anormallashtiruv kuzatiladi.

Ruhiyat tahlili, "ong oqimi", ijtimoiy-psixologik tasvir usuli har uchala romanda asosiy o'rin tutgan. Asarni voqealar emas, inson ruhiyati, o'z-o'zini tadqiq qilishi, boshqarishi katta yangilik edi. Buni biz "Kecha va Kunduz" romanida Miryoqubda, "Sarob" romanida Saidiyda kuzatdik. Miryoqub har doim o'zini tadqiq qiladigan inson. Miryoqubning ruhiy olami tadqiqi "Tushda kechgan umrlar" romanida Rustambek, "Bozor" romanida Fozilbek, "Jaziramadagi odamlar" romanida Lolaxonda berilgan.

Ma'shuqa obrazining ham o'zgarganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz zarur. Qadriya an'anaviy ma'shuqa talablariga javob beradi, lekin u ramziylashtirish nuqtay nazaridan jahon romanchiligi an'analari mos ravishda asarga kiritilgan. Qadriya ramziy ilm, ma'rifatni anglatadi. Shahnozada ham ma'shuqa talablariga javob berishi jihatidan an'anaviy takomili kuzatilsa-da, lekin Rustam bilan ziddiyatga borishi, so'nggi daqiqalarda onasining uyiga ketib qolishi, sabrining chegarasi ko'rinib qolishi jihatidan "Sarob" romanidagi Munisxonga yaqin turadi. Saidiy va Munisxon bitta oliygohda o'qir edi va ular ilm dargohida tanishadi, Rustambek va Shahnozada ham xuddi shu holatni kuzatamiz. Ma'shuqaning oshiq bilan uchrashuvlarga rozi bo'lishi ham bevosita g'arb adabiyotidan ko'chgan. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jahon romanchiligi an'analari mustaqillik davri romanlarida tub burilish yasadi. Uchlik tizimining ramziylashtirish asar g'oyasini yoritishda katta imkoniyatlar berdi.

Xulosa

Mustaqillik davrida yangilanayotgan estetik tafakkur mahsuli o'laroq milliy urf-odatlardan, diniy qarashlardan, an'anaviy obrazlar yaratishda, jahon romanchiligi an'analariidan unumli foydalangan holda badiiy sintezlashgan romanlar yozildi. O'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy boshlab bergan romanchilik ayni muhitda tarixiy ildizlari hamda jahon romanchiligi tajribasi bilan qorishiq holatda yuzaga keldi.

Mustaqillik davri romanlarida sinfiy kurash va partiyaviy yondashuvsiz alohida shaxs ruhiyatini tadqiq qilish ustuvorlik qiladi. Alohida shaxs ruhiyati "Tushda kechgan umrlar" romanida Rustam, "Jaziramadagi odamlar" romanida Lolaxonning ichki kechinmalari asar markazida turishi bilan xarakterlanadi. Mafkuradan qutilgan va erkin ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan adabiyot uchlik obrazlar ruhiyatini xilma-xil ko'rinishda ifodalash imkonini berdi. Buning natijasida uchlikda an'anaviy obrazlarga xos ilohiy ruhoniya ham, jahon adabiyotidan ijodiy ilhomlangan holda qusur va kamchiliklar, o'zgargan, ramziylashgan holatlarda ham o'z aksini topdi.

Mustaqillik davri romanlarining ilk bosqichida yangicha uslub va mahorat g'arb adabiyoti an'analariidan olindi. "Ong oqimi", psixologik tasvir usuli, ramziylik orqali muayyan mavzu yoritilgan romanlar yaratildi. Voqeadan ko'ra, o'y-fikrlar harakati ustunlik qildi. "Ong oqimi" "Bozor" romanida Fozilbek obrazida yaqqol ko'zga tashlanadi. Modirizm oqimining ta'sirida oshiq, ma'shuqa, raqib obrazi mumtoz adabiyotdagi kabi mukammal emas, balki qusurlar, buzilish holatlari bilan berildi, inson sifatida yaxshi va yomon jihatlari bilan kamolotga, baxtga intildi.

Islomiy qadriyatlar, sharq adabiyoti an'analariiga tayanish romanchilikdagi yangi talqinda namoyon bo'ldi. "Oshiq-ma'shuqa-raqib" obrazlar takomilida an'anaviylik tamoyili muhim o'rin tutdi. Shu nuqtai nazardan "Bozor" romani islomiy qadriyatlar asosiga qurilgani bilan xarakterlanadi. Mustaqillik davrida yaratilgan bir qator romanlarda uchlik tizimi an'anaviylik tamoyilini saqlab qoldi. Shu bilan birgalikda, jahon romanchiligi ta'sirida uchlik tizimidagi an'anaviy obrazlar talqini yangi bosqichga ko'tarildi.

Adabiyotlar

- Бахтин, М. 2015. Романда замон ва хронотоп шакллари (Рус тилидан У.Жўрақулов таржимаси) –Тошкент: Akademnashr.
- Жўрақулов, У. 2015. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги ММИУ.
- Қуроноф, Д. 2004. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ.
- Hoshimov, O'. 2000. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: MERIYUS XMNR.
- Дўстмуҳаммад, Х. 2000. Бозор. – Тошкент: SHARQ NMK.
- Бўрихон, Л. 2012. Жазирамадаги одамлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.